TILSHUNOSLIK

UDK: 811.512.133`373.7 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss4/a53**

O‘ZBEK TILIDA FRAZEOLOGIK TRANSFORMANTLAR VA ULARNI MODELLASHTIRISH

ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИЕ ТРАНСФОРМАНТЫ И ИХ МОДЕЛИРОВАНИЕ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

PHRASEOLOGICAL TRANSFORMANTS AND THEIR MODELLING IN UZBEK LANGUAGE

Sayfullayeva Ra’no Raufovna[1], Ganiyeva Shodiya Azizovna[2]

[1]Sayfullayeva Ra’no Raufovna – O‘zbekiston Milliy Universiteti professori, filologiya fanlari doktori

[2]Ganiyeva Shodiya Azizovna – Farg‘ona davlat universiteti, dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi leksik frazeologik birliklarning struktur-semantik tuzilishi, ularning nutqiy qurshovdagi sintagmatik voqelanishini yoritish orqali frazeologik transformatsiya hodisasini ochib berish maqsad qilib olingan bo‘lib, unda tavsiflash, qiyoslash, tasniflash, modellashtirish hamda differensial-semantik singari ilmiy metodlardan foydalanilgan. O‘zbek tilidagi frazeologik birliklarning nutqiy qurshovda o‘zgarishi natijasida shakllangan hosila birlik, xususan, transformantlarning kengayish, torayish, almashish va aralash tipdagi shakllanish usullari belgilab berish va ularni modellashtirish bilan bog‘liq masalalar tahlil qilinadi.

Аннотация

Целью данной статьи является раскрытие феномена фразеологической трансформации путем освещения структурно-семантической структуры лексических фразеологизмов узбекского языка, их синтагматической реализации в речевой среде. В ней используются такие научные методы, как описание, сравнение, классификация, моделирование и дифференциально-семантический. Анализируются вопросы определения способов типов формирования - расширения, сокращения, обмена и смешанного типа производных единиц, в частности трансформантов образовавшиеся в результате изменения фразеологизмов узбекского языка в речевой среде, и их моделирования.

Abstract

The purpose of this article is to reveal the phenomenon of phraseological transformation by highlighting the structural-semantic structure of lexical phraseologisms of the Uzbek language, their syntagmatic implementation in the speech environment.It uses scientific methods such as description, comparison, classification, modelling and differential-semantic.The questions of determining the ways of formation types - expansion, contraction, exchange and mixed type of derivative units, in particular transformants formed as a result of changes in phraseological phrases of the Uzbek language in the speech environment, and their modelling are analysed.

Kalit so‘zlar: *transformatsiya, frazeologik transfomatsiya, frazeologik transformant, frazema, torayish, modellashtirish, mohiyat, komponent, tayanch komponent, ellipsis, kengayish, almashish.*

Ключевыеслова: *трансформация, фразеологическая трансформация, фразеологический трансформант, фразема, сужение, моделирование, сущность, компонент, базовый компонент, эллипсис, расширение, обмен.*

Key words: *transformation, phraseological transformation, phraseological transformant, phrase, contraction, modelling, essence, component, base component, ellipsis, expansion, exchange.*

KIRISH

Ma’lumki, frazeologik birlik turg‘un birlik hisoblanib, u nutqqa tayyor holda olib kiriladi va yaxlit holda bir umumiy semani ifodalash uchun xizmat qiladi. Ammo til taraqqiyoti davomida, aytish zarurki, muayyan nutqiy jarayonda boshqa barcha til birliklarida yuz bergani singari, frazeologik birliklarda ham bir qator o‘zgarishlar yuz berishi, frazeologik birlikning tarkibidagi ayrim grammatik va leksik vositalar kengayishi, almashinishi, torayishi yoki tushishi mumkin. Bunday o‘zgarishlar frazeologizatsiya, variantlashish, transformatsiya, kontaminatsiya singari hodisalarning natijasi sifatida yuzaga keladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Jahon tilshunosligida, jumladan, o‘zbek tilshunosligida keyingi yillarda frazeologik birliklar tahlilida ularning leksik-semantik, kognitiv hamda lingvokulturologik xususiyatlari, mazkur

birliklarning boshqa lisoniy birliklar bilan munosabati, xususan, leksema, erkin so‘z birikmalari, ayni vaqtda, turg‘un birikmalar bilan munosabati masalasiga alohida ahamiyat berilmoqda. Ayrim tadqiqotlarda frazeologik birliklarning boshqa birliklar bilan o‘zaro sintagmatik munosabati, sintaktik pozitsiyalari, ularning valentligi, shuningdek, transformatsiyasi ham ma’lum darajada o‘rganildi[2, 4, 6, 9, 10, 13, 14, 18, 20, 21].

Bugungi kunda transformatsiya hodisasi sintaktik sath uchungina emas, balki boshqa sathlar uchun ham tegishli hodisa sifatida amal qilmoqda. Xususan, frazeologik birliklar shakily o‘zgarishi bilan bog‘liq hodisalar bo‘yicha ham ayrim monografik izlanishlar maydonga kelgan bo‘lib, bu borada jahon tilshunosligida olib borilgan Y.M.Dubinskiy[5], S.P.Volosevich[3], A.V.Kunin[12], N.A.Kryukova[11], K.Y.Sigal[19] singari olimlarning tadqiqotlarini, o‘zbek tilshunosligida esa Sh.Rahmatullayev[16], B.Yo‘ldoshev[8], G.Jumanazarova[7], B.Boltayeva[2], Sh.Sultonova[20] kabi olimlarning izlanishlarini alohida ko‘rsatib o‘tish zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mavzuni yoritishda tavsiflash, qiyoslash, tasniflash, modellashtirish hamda differensial-semantik metodlardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Transformatsiya – shakl o‘zgarishi bilan bog‘liq hodisa bo‘lib, transformatsiya natijasida hosil bo‘lgan birlik semantik jihatdan o‘zgarishga uchramasdan, uslubiy va pragmatik vazifani bajarishi kuzatiladi. Tilshunoslikda transformatsiya atamasi asosiy sintaktik tuzilmani til qonun-qoidalari asosida o‘zgartirib, ikkinchi bir tuzilma hosil qilish ma’nosini anglatadi. U tilshunos olim Harris tomonidan fanga olib kirilgan. Birinchi marta bu atama shunday izohlanadi: «tildagi yadro gapning (ядерные предложение) hozirgi zamon, tasdiq shaklidagi fe’lli, modal so‘z va murakkablashtiruvchi elementlarsiz gap) hosila gapga aylantiruvchi u yoki bu qoidalar. Sintaksisdagi bu paradigmatik tushunchani shunday izohlash mumkin: yadro gapdagi sintaktik munosabatlarni va leksik tarkibini o‘zgartirmasdan, uning mazmunini o‘zgartirish»[1].

Frazeologik transformatsiya, avvalo, mazkur birlikni tashkil etgan komponentlarda yuz beruvchi miqdor hamda sifat o‘zgarishlari natijasida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, frazeologik ma’no tarkibidagi uslubiy bo‘yoqdorlik bu birlikning transformatsiyalanishi jarayonida yanada kuchayadi.

Masalan:

Ish maydoniga kelganidan keyin "Menga qanday vazifa yuklatarkan?", deb kutib turmasdi, shartta ishga tushib ketardi (Zulfiya Qurolboy qizi, Mashaqqatlar girdobi).

Keltirilgan parchada *ishga tushmoq* frazemasi qo‘llanilgan bo‘lib, bu o‘rinda ko‘makchi fe’l ta’sirida frazeologik birlik ifodalagan ma’no, unga yuklanayotgan uslubiy maqsadning yana kuchaytirilganligini ko‘rish mumkin. A.Mamatovning ko‘rsatib o‘tishicha, frazeologik ma’noning shakllanishi murakkab jarayon bo‘lish bilan birga, frazeologik ma’no tarkibi ham juda murakkabdir. Odatda, «frazemaning mazmun planida frazeologik ma’no va uslubiy ma’no farqlanadi. Lug‘aviy ma’no frazeologik birlik ifodalaydigan tushuncha, nomlanuvchi narsa-predmet, jarayonni bildiruvchi ma’no hisoblanib, signifikativ va denotativ jihatlarni qamrab oladi. **Uslubiy ma’no munosabat kabilarni ifodalovchi ma’nodir**»[14,29] ***– (ta’kid bizniki – Sh.G.)***.

Yuqoridagi gapda ham *ishga tushmoq* frazeologik birligi *ketmoq* ko‘makchi fe’li bilan birga qo‘llangani sababli, uning ma’nolari tarkibidagi “harakat”, “boshlanish” semalari sirasiga *ketmoq* ko‘makchi fe’lining “davomlilik” semasi ham qo‘shilmoqda.

Nutq jarayonida frazeologik birliklar transformatsiyasining turlicha ko‘rinishlari namoyon bo‘ladi. Biz umumiy tarzda transformatsiya hodisasining quyidagi ko‘rinishlarini ajratishimiz mumkin:

1. Frazeologik birliklar komponentlarining torayishi (tushishi) natijasida yuzaga kelgan transformantlar: *aravani quruq olib qochmoq – aravani olib qochmoq – olib qochmoq; bir-ikki og‘iz – bir og‘iz* yoki *ikki og‘iz.*

Masalan*:*

Ko‘chalarda toshli, shag‘alli

Aravangni o‘zing tort*, bolam* (B.Iso, Dadamning bir nasihati).

Berilgan she’riy parchada *o‘z aravasini o‘zi tortmoq* frazeologik birligining dastlabki komponenti (*o‘z*) tushib qolishi bilan frazema elllipsisga uchragan va *aravangni o‘zing tort*

shaklidagi transformant hosil bo‘lgan. Shu bilan birga, frazeologik birlik tarkibida ma’lum grammatik o‘zgarishlar ham yuz berishi kuzatiladi.

Mazkur shakl shartli ravishda quyidagicha modellashtiriladi:



Bunda*:*

***FM** – mohiyat, ya’ni frazeologik birlikning dastlabki shakli;*

***FT** – transformant, frazeologik birlik transformatsiyasi natijasida hosil bo‘lgan birikma;*

K – komponent, frazeologik birlikning tarkibiy qismi;

A, B, C – frazeologik birlik tarkibidagi komponentlar ketma-ketligini belgilash uchun qo‘llanilgan lotin alifbosi harflari.

Ma’lumki, ellipsis hodisasi eng keng tarqalgan lisoniy hodisalardan biri bo‘lib, bu to‘g‘risida fikr yuritgan B.Boltayeva tilda mavjud qator frazeologik birliklar variantlarining ayni shu hodisaning natijasi ekanligini alohida ko‘rsatib o‘tadi[15,96].

Frazeologik birlik tarkibidan ayrim komponentlarni chiqarish:

***Biri uzuk, biri gavhar bo‘lsin-ey**,*

Baxtga to‘lsin qovushganda ikki dil (B.Iso, Sovchilar).

Tilimizda *uzukka ko‘z qo‘ygandek* frazemasi bo‘lib, muallif bu yerda *uzuk va ko‘z(gavhar)*ning birikishiga ishora tarzida yoshlarning bir-biriga munosib ekanligini obrazli tarzda ta’kidlamoqda.

2. **Frazeologik birliklar komponentlarining kengayishi** natijasida yuzaga kelgan transformantlar:

Frazeologik birlik tarkibiga ayrim komponentlarni kiritish:

Yo yo‘qni bor qilmadi she’ring,

Qo‘y, Bahodir, endi she’r yozma (B.Iso, Qo‘y, Bahodir, endi she’r yozma).

Berilgan parchada *yo‘qdan yo‘ndirmoq* frazeologik birligining transformatsiyaga uchragani kuzatilyapti. Mazkur frazeologik birlik Sh.Rahmatullayev tomonidan shunday izohlangan: «Har qancha mashaqqat bilan bo‘lsa ham, bunyod qilmoq»[17,124].

Yuqoridagi she’riy parchadagi frazeologik birlikning mazmuniy mundarijasida ham “harakat”, “intilish”, “bunyod qilish” semalari saqlangan. Shakliy ifodada ko‘chish, o‘zgarish kuzatiladi, transformatsiya jarayoni yuz bergan. Amaldagi *yo‘qdan yo‘ndirmoq* frazeologik birligining *yo‘ndirmoq* leksemasi o‘rniga *bor qilmoq* komponenti bo‘lishsiz shaklda ishlatilgan.


Ko‘pincha frazeologik birliklarning grammatik jihatdan kengayishi kelishik qo‘shimchalari va ayrim analitik shakllar hisobiga kuzatiladi:

“Qozi” cho‘ntagidan pul chiqarib sanadi-da, javobgar yigitga uzatdi:

- Omading chopib qoldi, ma, ol, - dedi himmat qilib (T.Malik, Shaytanat).

Bu yerda *omadi chopmoq* frazemasining grammatik jihatdan ko‘makchi fe’llar orqali kengayishi, albatta uning uslubiy ma’nosi kuchayishini ham kuzatish mumkin.

Bu shakl shartli ravishda quyidagicha modellashtiriladi:



3. **Frazeologik birliklar komponentlarining almashishi** natijasida yuzaga kelgan transformantlar. Mazkur turdagi transformantlar leksik komponentlardan birining almashishi orqali yuzaga chiqadi: *Gapir! Balodan qaytmaydigan bola eding-ku, nimaga ammamning buzog‘iga o‘xshab qolding?* (T.Malik, Shaytanat).

A.Mamatov va B.Boltayevalar ko‘rsatib o‘tganlaridek, «Nutqda frazeologik birliklarning transformatsiyalanishi hodisalari ichida eng ko‘p tarqalgan hodisalardan biri frazeologik birlik leksik

komponentlaridan birining almash qo‘llanilishi hodisasidir. Til faktlari shuni ko‘rsatadiki, bu hodisada almash qo‘llanilgan leksik komponent asosan bir mavzuiy guruhga kiruvchi antonimik yoki sinonimik so‘z yoki so‘z birikmalaridan tashkil topadi»[15,82].

Dastlabki ko‘rinishda tayanch komponentlar leksik komponentlarining o‘zgarishi (almashishi) natijasida transformantlar hosil bo‘ladi. Transformatsiya natijasida tayanch frazeologik birliklarning ma’no ifodasida ekspressivlikning kuchayishi namoyon bo‘ladi.


Agar shahardagi tabib “ovora bo‘lib borib yurma, o‘sha chol sening qudratingni bir pulga olmaydi, mag‘rur boshingni egadi, suzmoqchi bo‘lgan shoxingni sindiradi”, deganida tili kesilishi mumkin edi (T.Malik, Shaytanat).

Mazkur parcha tarkibida *bir pulga olmoq, boshini egmoq, shoxiga urmoq (shoxini sindirmoq)* kabi bir qator frazeologik birliklar qo‘llanilgan bo‘lib, birinchi frazema, odatda, fe’lning bo‘lishsiz shaklida qo‘llaniladi, bu yerda odatdagi shaklda kelgan. Ikkinchi frazema ham ma’lum grammatik vositalarga (ikkinchi shaxs, birlik) moslashib yuzaga chiqyapti. Uchinchi birlik *shoxiga urmoq* frazemasining komponentlari esa leksik o‘zgarishga uchragan, ma’no kuchayishi ham sezilyapti. Bunday holda tayanch komponentlar grammatik ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi (almashishi) natijasida transformantlar hosil bo‘ladi. E’tibor qilamiz:

Yana ajablanarli tomoni shundaki, shiltasi chiqadigan ishni Chuvrindi Kesakpolvon zimmasiga oshirishga urinardi (T.Malik, Shaytanat).

Bu gapda *zimmasiga olmoq* frazemasining *zimmasiga oshirishga* tarzida transformatsiyaga uchragan shakli keltirilgan, frazeologik birlik tarkibidagi *olmoq* fe’l-komponenti *oshirmoq* tarzida berilib, ma’nosining o‘zgarishi bilan birga, fe’lning harakat nomi shakli jo‘nalish kelishigi ko‘rsatkichi bilan qo‘llanilyapti.

Shartli ravishda quyidagicha modellashtiramiz:



4. Frazeologik birliklar komponentlarining torayishi, kengayishi, almashishi uyg‘un holda yuzaga kelgan transformantlar. Masalan:

“Lozim bo‘lsa, ignaning teshigidan tuyani ham o‘tkazib yubora olaman”, deb katta ketuvchi “qozi” xo‘jayinning fe’li aynib turganini fahmlab, bunday kezlarda ***chorakta gap ham ortiqcha****ligini bilgani uchun lom-mim demay, barcha ehtiromini ta’zim orqali izhor eta qoldi* (T.Malik, Shaytanat).

Berilgan parchada *fe’li aynimoq, bitta gap ham ortiqcha*, *lom-mim demoq(maslik)* frazeologik birliklari qatnashgan bo‘lib, *bitta gap ham ortiqcha* frazeologik birligi tarkibidagi leksik birlikning almashinishi hisobiga transformatsiyaga uchragan. Chunki unda ishtirok etgan *bitta* leksemasi *chorakta* tarzida almashgan bo‘lib, bu birlik frazemaning “kamlik” semasini yanada kuchaytirishga xizmat qilyapti.


Bundan tashqari, bilamizki, *ignadek (ish)ni tuyadek qilmoq* sintaktik frazeologik birligi tarkibida “mushkul”asosiy semasi muhim ahamiyatga ega. Mazkur gapda bu frazeologik birlik *ignaning teshigidan tuyani ham o‘tkazib yubora olaman* shaklida har qanday mushkul ishni bajarish ma’nosini kuchaytirish maqsadida qo‘llanilgan.

Quyidagi parchada aralash holat namoyon bo‘lyapti:

Hamma narsaga burningni tiqaverma, deb necha marta aytganman-a! Yo burningni kesib tashlaymi? (T.Malik, Shaytanat).

Bu yerda tayanch birlik *burnini tiqmoq – burnini tiqa bermaslik* shakliga kengaygan, ham ko‘makchi fe’l hisobiga ma’no bo‘yoqdorligi yanada oshgan. Bu jarayonda shaklan torayish (yashirin), ko‘makchi fe’l bilan kengayish va bo‘lishsiz shaklga o‘zgarish holati yuz bergan.

Aralash tipdagi tranformatsiyani quyidagicha modellashtiramiz:



XULOSA

Frazeologik transformatsiya kontaminatsiya, frazeologizatsiya, variantlilik singari hodisalar bilan aloqador bo‘lib, frazeologik transformatsiya qurilma komponentlarida yuz beradigan miqdor va sifat o‘zgarishlariga asoslanadi. Shu bilan birga, frazeologik ma’no tarkibidagi uslubiy bo‘yoqdorlik bu birlikning transformatsiyalanishi jarayonida yanada kuchayadi. O‘zbek tilida frazeologik transformatsiya jarayonida yuzaga kelgan qurilma, hosila birlik tayanch frazeologik birikma, ya’ni mohiyat komponentlarining ba’zi qismlari kengayishiga, ularning torayishi va ayrim komponentlarga o‘zaro almashishi orqali hosil bo‘ladi. Ana shu asosda birliklarni tasniflash va ularning modellari, sxemalarini belgilash o‘rinlidir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Апресян Ю. Д. Трансформационный метод // Лингвистический энциклопедический словарь / Главный редактор В. Н. Ярцева. — М.: Советская энциклопедия, 1990. — 685 с. — ISBN 5-85270-031-2.
2. Болтаева Б.И. Ўзбек тили фразеологик бирликларининг трансформацияси(семантик-прагматик таҳлил): Филол. фанл. бўй. фалс. д-ри ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2019;
3. Волосевич, С.П. Замена компонентов фразеологических единиц в аспекте номинации и коммуникации (на материале современного английского языка): автореф. дис. ... канд. филол. наук. - М., 1989.
4. Ганиева Ш.А. Ўзбек фразеологизмлари структураси(шаклий ва мазмуний моделлаштириш): Филол. фанл. бўй. фалс. д-ри ... дисс. автореф. – Фарғона, 2017;
5. Дубинский Е. М. Лингвостилистические особенности двойной актуализации фразеологических единиц (на материале современного английского языка): дис. ... канд. филол. наук. - М., 1984.
6. Жуков В.П. Семантика фразеологических оборотов. М.: Просвещение, 1978;
7. Жуманазарова Г., Болтаева Б., Қулбоева Д. Фраземаларнинг нутқда қўлланилиши. – Тошкент: Тигоп замин зиё. – 2017.
8. Йўлдошев Б. Ўзбек тилида фразеологик бирликларнинг услубий ва прагматик имкониятлари. – Самарқанд, 2002.
9. Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографияси масалалари. – Тошкент: Муҳаррир, 2013;
10. Колобова Е.А. Фразеологическая контаминация: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Иваново, 2011;
11. Крюкова Н.А. Распространение компонентного состава фразеологических единиц русского языка. автореф. дис. ... канд. филол. Наук. – М., 2007.
12. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка: учеб.для ин-ов и фак.иностр. яз. – Дубна: Феникс, 2005.
13. Маматов А.Э Ҳозирги ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент, 1991;
14. Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол. фанл. докт.... дисс. автореф. – Тошкент, 2000;
15. Маматов А., Болтаева Б. Фразеологик бирликларнинг семантик-прагматик тадқиқи. – Тошкент: Наврўз. – 2019.
Раҳматуллаев Ш. Нутқимиз кўрки. - Тошкент, 1970.
16. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. Тошкент: Ўқитувчи, 1978.
17. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилида феъл фраземаларнинг боғлашуви. – Тошкент: Университет, 1992;
18. Сигал К.Я. О двух аспектах в синтаксическом описании фразеологических единиц // Текст: структура, семантика, стилистика. Сборник статей по итогам Международной конференции памяти доктора филологических наук, профессора Е.И.Дибровой: в 2 частях. Часть 1. – М., 2015. – С.114-121.
19. Султонова Ш.М. Диний фразеологизмлар трансформацияси: семантик ва лингвомаданий аспектлар: Филол. фанл. докт. ... .дисс. автореф. – Фарғона, 2022;
20. Ҳакимов Қ.М. Ўзбек тилидаги содда гап қолипли фразеологизмларнинг зарурий бирикувчанликлари: Филол. фанл. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1994.